

## UMUMTA'LIM MAKTABLARINING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI TASVIRIY SAN'ATGA O'RGATISHNING MAQSADI VA MAZMUNI

**Boltaboyev Azizbek Xasanboy o'g'li**

*Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*E-mail: [azizbekboltaboyev1994@gmail.com](mailto:azizbekboltaboyev1994@gmail.com) Tel- 943082603*

**Annotatsiya:** Ushbu ishda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinfi o'quvchilarini tasviriy san'atga o'rgatishning maqsadi va mazmuni yoritilgan. Boshlang'ich ta'limda tasviriy san'at o'quvchilarning estetik didi, ijodkorligi va go'zallikka muhabbatini shakllantirishga qaratilgan. Dars jarayonida bolalar rasm chizish, rang tanlash, kompozitsiya tuzish kabi amaliy mashg'ulotlar orqali san'at qonuniyatlarini o'zlashtiradilar. Maqola mazmunida o'quvchilarning badiiy didini shakllantirishda milliy san'at namunalaridan foydalanish, ijodiy faoliyatni rivojlantirish usullari hamda tasviriy san'atning tarbiyaviy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Natijada, boshlang'ich ta'limda tasviriy san'at fani o'quvchilarning ijodiy dunyoqarashini kengaytiruvchi, estetik tarbiya beruvchi va madaniy ongni rivojlantiruvchi muhim fan sifatida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** haykaltaroshlik, kompozitsiya, ijodiy qobiliyat, rang sezish, tabiat, go'zallik.

## ЦЕЛЬ И СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

**Аннотация:** В данной работе рассматриваются цель и содержание обучения изобразительному искусству учащихся начальной школы. В начальном образовании изобразительное искусство направлено на формирование у учащихся эстетического вкуса, творческих способностей и любви к прекрасному. На уроке дети осваивают законы искусства через практические действия, такие как рисование, подбор цвета и составление композиций. В статье научно обоснованы использование образцов национального искусства в формировании художественного вкуса учащихся, методы развития творческой активности и воспитательное значение изобразительного искусства. В связи с этим в начальном образовании изобразительное искусство является важным предметом, расширяющим творческий кругозор учащихся, дающим эстетическое воспитание и развивающим культурное сознание.

**Ключевые слова:** скульптура, композиция, творческие способности, цветовое восприятие, природа, красота

## PURPOSE AND CONTENT OF TEACHING PRIMARY STUDENTS OF COMPREHENSIVE SCHOOLS IN FINE ART

**Annotation:** This work covers the purpose and content of teaching primary school students in fine art. In primary education, fine art is aimed at forming students' aesthetic

*taste, creativity and love of beauty. During the lesson, children master the laws of art through practical activities such as drawing, choosing colors, and composing compositions. The article scientifically substantiates the use of national art samples in the formation of students' artistic taste, methods for developing creative activity, and the educational significance of fine art. As a result, in primary education, fine art is an important subject that expands students' creative outlook, provides aesthetic education, and develops cultural awareness.*

**Keywords:** sculpture, composition, creative ability, color perception, nature, beauty

## KIRISH

O'zbekistonda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismi sifatida ta'lim tizimida, jumladan, maktab ta'limida ham rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini va ilm-fanning so'nggi yutuqlarini hamda zamonaviy metodikasini hisobga olgan holda tizimda ma'nan mukammal, barkamol, intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarning badiiy-estetik tarbiyasi bilan bog'liq bo'lib, u yoshlarni komil inson qilib shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at darslari o'quvchilarning rasm ishlash malakalarini o'stiribgina qolmay, balki ularning badiiy fikr doirasini kengaytiradi, ijodiy qobiliyatlari, kuzatuvchanligini, ko'z xotirasini rivojlantiradi. Shuningdek, bu o'quv predmeti o'quvchilarda milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirishda, ayniqsa, axloqiy, vatanparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich sinfda o'tiladigan tasviriy san'at o'quv predmetining maxsus vazifalari qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- o'quvchilarda tevarak-atrofdagi narsa va voqealarga nisbatan estetik munosabatni tarkib toptirish va go'zallikni his qila bilishga, tushunishga hamda ularni hayotga tatbiq etishga o'rgatish;
- qalam va mo'yqalam bilan rasm, loy, plastilin, steklar bilan haykal ishlash malakalarini shakllantirish;
- narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, xotiradan, tasavvurdan rasm chizish sohasida ko'nikma va malakalar hosil qilish;
- o'quvchilarda tasavvur va tafakkurni o'stirish;

- borliqni idrok qilishni, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni rivojlantirish;
- bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyatni o'stirish;
- o'quvchilarning badiiy fikrlash doirasini kengaytirish;
- san'atga nisbatan qiziqishni o'stirish va uni sevrishga o'rgatish.

Tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri bu o'quvchilarni estetik, xususan, badiiy tarbiyalash ekan, u hayotdagi, tabiatdagi, san'atdagi, kishilarning munosabatlaridagi go'zalliklarni to'liq idrok etishni shakllantirishdir. Zotan, go'zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta'sir etib, ma'naviy dunyosini boyitadi. Hayotga estetik munosabatda bo'lish ilhomning asosi bo'lib, mehnatni quvonch va ma'naviy manbaga aylantirishga yordam beradi.

Jamiyatimizning har bir kishisi qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat'iy nazar go'zallik va nafosatni ko'ra olishi, tushuna bilishi kerak. O'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o'qituvchi ularga tabiatdagi go'zalliklarni, shakl va ranglarning turli-tumanligini ko'rsatadi. Bolalarda quvonch, hayajon baxsh etguchi tabiat go'zalliklari, so'z bilan tasvirlab bo'lmaz rang birikmalari uzoq vaqtlargacha ularning xotirasida saqlanib qoladi. Manzara, daraxtlar, barglar va gullarning o'ziga qarab rasmini chizish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bolalar tabiatga ko'proq qiziqadigan bo'ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroflicha ko'ra olishga, shuningdek, ko'rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to'liq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, o'lchovlari, fazodagi holati, rangi kabilarni diqqat bilan o'rganadilar.

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at mashg'ulotlari uch blokdan tashkil topadi:

1. Atrofimizdagi borliq tabiat va shakllarni idrok etish.
2. Narsani asliga qarab tasvirlash.
3. Tasviriy san'at turlari va janrlarida kompozitsiya asoslar.

Bu bloklar o'z navbatida yana kichik bloklarga bo'linadi. Naturaga qarab tasvirlash bo'limi naturaga qarab rasm ishlash va naturaga qarab haykal ishlash qismlaridan tashkil topadi. Kompozitsiya bo'limi esa rangtasvir kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiya hamda haykaltaroshlik kompozitsiyasi kabi qismlardan iborat.

Atrofimizdagi borliq tabiat va shakllarni idrok etish. Bu blok mashg'ulotlarida o'quvchilar tabiatdagi, tevarak-atrofdagi jonli va jonsiz narsalarni, shuningdek, voqea va hodisalarning shakli, tuzilishi, o'lchovlari, rangi va boshqa xususiyatlarini bilib oladilar. Bulardan o'zlarining tasviriy faoliyatlarida foydalanadilar. Shu bilan birga bu blok mashg'ulotlari bolalardagi kuzatuvchanlikni, xotirani, tasavvurni, estetik idrokni rivojlantirib boradi. Borliqni estetik idrok etish mashg'ulotlari odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o'tkaziladi. Buning uchun mavzuga oid obyektlar yaxshilab kuzatiladi va o'rganiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur boshlang'ich sinfda ham bolaga tasviriy san'atning nazariy asoslarining eng sodda usullarini o'rgatish muhim vazifa hisoblanadi. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarga tasviriy san'atning qonun-qoidalarini o'rgatish vositasida kelajakda yetuk rassom-ijodkor mutaxassislar bo'lib yetishishlari uchun zamin yaratadi. Quyida tasviriy san'atning asosiy qonun-qoidalarini keltirib o'tamiz.

Tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyumning qaysi tomonidan qat'iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan) chizuvchiga o'zgarib ko'rinadi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlarini chizuvchiga o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz.

Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. Bu holatni shunday ta'riflash mumkin: "Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shakl va katta-kichiklikka ega bo'lmasin, perspektiv qonun va qoidalariga bo'ysunadi va qisqarib ko'rinadi".

Buyumlarning hajmlarini bajarishda, chiziqlarni tortish ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosish va chiziqlar orasidagi masofaning teng bo'lishiga e'tibor berib tasvirlash, chizilayotgan buyumni to'g'ri bajarilishida katta ahamiyatga ega. Aylana (sferik) hajmga ega bo'lgan buyumlarni bajarishda, yuqorida ta'kidlab o'tilgan chiziq tortish ellips shaklida bajarilib, buyumning ekvatoriga yaqinlashgan to'qroq tusda bo'ladi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Chiziqli konstruktiv tuzilish. Tasvirlash uchun buyum qanday sodda yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar u konstruktiv tuzilishga ega. *Konstruksiya* so'zi – tuzilish (qurilish) ma'nosini anglatib, rassom buyumni tasvirlashda ushbu qonunga

amal qilishi shart. Buyumni haqqoniy qilib tasvirlash uchun uning tuzilishini chiziqli konstruktiv tuzilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Chiziqli konstruktiv qurish har qanday vazifani tasvirlashda amalga oshiriladi. Quyidagi antik davrga mansub gipsdan ishlangan ko'za va me'morlik bo'lagida ushbu qonunni amalda ko'rishingiz mumkin.

Buyumning konstruktiv tuzilishini uning asosiy qismlaridan hamda yordamchi chiziqlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi (ko'za, konus, piramida va hokazo). Chiziqli konstruktiv tuzilish orqali buyumni to'g'ri tasvirlashda perspektiv qonun-qoidalarga to'liq amal qilishni taqozo etadi. Yuqorida ko'rsatilgan rasmdagi gips ko'zaning hajmini to'g'ri amalga oshirish jarayonida ko'za asosiy, ekvatori, bo'g'izi va yuqori qismi aylanalarining uning buyum tekisligidagi holatiga asosan perspektiv qisqarishini ko'ramiz. Demak, chiziqli konstruktiv qurish buyumning chekka qirralarini kontur chiziqlar bilan murakkab tuzilishga ega bir necha mayda bo'laklardan iborat. Buyumlarda esa ushbu bo'laklarning yengil birlashib yaxlit bir butunlikni tashkil etishdan iboratdir.

Buyumlar o'z hajmiga ega bo'lishdan tashqari nisbatlarda ham, balandligi va eniga egadir. Bu esa buyumlarning nisbati deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil etilgan qo'yilma o'z nisbatlaridan tashqari o'zaro ham katta-kichikligiga qarab nisbatlari mavjud. Haqqoniy tasvirlashda buyumlar nisbatini to'g'ri aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buyum nisbatlarini to'g'ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amalga oshiriladi. Masalan, gips naqsh rozetkasini olaylik. Rozetkaning balandligini eniga nisbatan kattaligini aniqlash uchun qo'lga qalamni ushlab uzatgan holda rozetkaning kichik tomoni – enining o'lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab, rozetka balandligiga qo'yib taqqoslaymiz. So'ngra ushbu topilgan nisbatni qog'ozda belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil etilgan natyurmort yoki boshqa o'zining hamda o'zaro nisbatlarini to'g'ri tasvirlash mumkin.

## XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tasviriy san'atga o'rgatish - ularning estetik didini shakllantirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va milliy madaniyatga bo'lgan hurmatni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon nafaqat chizish malakasini egallash, balki tabiat, jamiyat va inson hayotidagi go'zallikni

idrok etish, uni tasvirlash orqali estetik qadriyatlarni anglashga yo'naltiriladi. Shu tariqa, tasviriy san'at fani boshlang'ich ta'lim tizimida estetik tarbiyaning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi va shaxsning har tomonlama yetuk bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J. "Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim". — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Karimov B. "Ijodiy ta'lim texnologiyalari". — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Xasanboy O'g'li B. A. O'quv jaryonida qalamchizgi va qoralamalarni bajarishda talabalarni kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi //Scientific bulletin of namsu-научный вестник намгу-намду ilmiy Axborotnomasi—2023-yil\_7-son.
4. Xasanboy o'g'li B. A. TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI //Economy and Innovation ISSN. — C. 2545-0573.
5. Болтабоев А. Приемы выполнения черновиков в процессе обучения студентов на занятиях изобразительного искусства //Общество и инновации. — 2023. — Т. 4. — №. 4/S. — C. 209-213.
6. Oktyabrov, M., & Ibrohimjonova, S. (2025). O'quvchilarga ranglarni o'rgatishda foydalanish uchun tavsiya etilgan metodlar. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 150-156.
7. Mohirjon, O. (2023). Tasviriy sanat mashg'ulotlarining oziga xosligi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(15), 464-470.
8. O'G'Li, B. A. A., & Anvarova, X. I. Q. (2025). Ranglarning xususiyatlari va insonlarga ta'siri. *Science and Education*, 6(6), 753-757.
9. Nabiyeu, B., & Usmonova, Y. (2025). NATYURMORT JANRINING RIVOJLANISH TARIXI VA BOSQICHLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 196-200.
10. Raximov H., Abdullayeva S. 5-SINF O'QUVCHILARIGA TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA NATYURMORT ISHLASHNI O'RGATISH //Universal xalqaro ilmiy jurnal. — 2025. — T. 2. — №. 4.3. — C. 191-195.
11. Raximov H., Abdinabiyeva M. O'QUVCHILARGA KULOLCHILIK SAN'ATINI O'RGATISHNING NAZARIY MASALALARI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. — 2025. — T. 2. — №. 4.3. — C. 219-223.
12. Komoldinov S. MANZARA CHIZISHNING NAZARIY ASOSLARI VA RASSOMLAR ASARLARI TAXLILI MANZARA CHIZISHNING NAZARIY ASOSLARI VA RASSOMLAR ASARLARI TAXLILI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. — 2025. — T. 2. — №. 4.3. — C. 264-267.
13. Komoldinov S., Ubaydullayeva M. O'RAL TANSIQBOYEV IJODIDA O'ZBEKISTON TABIATINING IFODA ETILISHI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. — 2025. — T. 2. — №. 4.3. — C. 268-272.
14. Sattarov F. I. Practical and theoretical recommendations on drawing landscape compositions //Science and Education. — 2024. — T. 5. — №. 12. — C. 238-241.
15. Islomovich S. F. QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARNI KOMPOZISIYA OID BILIM VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH.